

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**11.00.02 – IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA IXTISOSLIGI  
BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOV LARI  
UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

**Samarqand – 2023**

### **Annotatsiya:**

Dastur 11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligiga kiruvchilar uchun 5A140602 – Geografiya (o‘rganish obyekti bo‘yicha) mutaxassisligining 2022-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

### **TUZUVCHILAR:**

Usmanov M.R.	SamDU, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası mudiri, geografiya fanlari nomzodi, dosent
Ravshanov A.X.	SamDU, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası dosenti, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Muxamedov O.L.	SamDU, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası dosenti, geografiya fanlari nomzodi

Dastur Geografiya va ekologiya fakultetining 2023-yil 24-oktabrdagi № 3-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan

## **KIRISH**

11.00.02- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi– Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yildan-yilga keskinlashib borishi insonning tabiat qonuniyatlarini chuqur bilishni, shuningdek, tabiatdan hamda uning resurslaridan tejab-tergab, oqilona foydalanish, antropogen landshaftlarning xo'jalik nuqtai nazaridan buzilishi va oqibatlarini, geoekologik muammolar, inson salomatligi, nozogeografik vaziyat, global salomatlik, nozogeografik vaziyat, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalar, mintaqalar xo'jalikni hududiy tashkil etish, innovasion rivojlantirish, aholi va demografik muammolarni tadqiq etish, aholiga xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, mintaqalar rekreasiya va turistik resurslardan kompleks foydalanish bugungi geografiyaning asosiy tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Shuningdek, geografik tadqiqotlar hududlar barqaror rivojlanishini, inson geografiyasini, konstruktiv geografik tadqiqotlar va kartalashtirish masalalari xorijiy mamlakatlarda keng o'rganilishi geografiyaning amaliy ahamiyatini oshirmoqda. Shunga ko'ra iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani nazariy va amaliy jihatdan chuqur ko'nikma va malakaga mukammal ega bo'lgan ixtisosliklar bo'yicha ilmiy darajali kadrlar tayyorlash yuqorida qayd etilgan sohalaridagi ta'lim tizimining negizi hisoblanadi.

11.00.02- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligining vazifasi - ijtimoiy-iqtisodiy, geosiyosiy masalalar, xo'jalikni hududiy tashkil etish, aholi va demografik muammolarni tadqiq etish, rekreasiya va turistik resurslar, tibbiy va servis xizmatlarini hududiy tashkil etish, joylashtirish, rivojlantirish va muammolarni va uning yechimi hamda sabablarini aniqlashdan iboratdir.

11.00.02- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarlar uchun 5A140602 -Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisliklari o'quv rejasiga asosan 3 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: "Servis geografiyasi", "Mintaqaviy rivojlanishning geografik asoslari", "Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik" fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan.

Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

### **SERVIS GEOGRAFIYASI**

#### **fani bo'yicha:**

Servis geografiyasining nazariy asoslari. Fanning tadqiqot obyekti va predmeti. Xizmat ko'rsatish muassasalari to'ri va tizimlari, aholining turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari servis geografiyasining tadqiqot obyekti ekanligi. Aholiga xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish servis geografiyasining predmeti sifatida. Servis geografiyasining fanlar tizimida tutgan o'rni, maqsadi va vazifalari. Asosiy termin va tushunchalari. Servis geografiyasining ilmiy va amaliy ahamiyati, uning yuqori malakali geograf

mutaxassislar tayyorlashdagi roli. Servis, xizmat ko'rsatish sohalari va ijtimoiy infratuzilma tushunchalarining mazmuni, ularning o'zaro mushtarakligi. Infratuzilmaning ikkiga ajratilishi: ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma. Aholining kundalik turmush sharoitlarini ta'minlab turuvchi xizmat ko'rsatish muassasalari ijtimoiy infrastrukturani hosil qilishi. Muayyan hududda xizmat ko'rsatish sohasining joylashuvini tabiiy, iqtisodiy, demografik, aholi joylashuvi va boshqa omillarni hisobga olgan holda tavsiflash va baholash eng avvalo geograflarning vazifasi ekanligi. Servisni geografik o'rganishning ikki muhim jihati: 1) aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari va mavjud xizmat ko'rsatish darajasini o'rganish; 2) xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishi va uning hududiy tizimlarini o'rganish. Servis geografiyasida tadqiqotlarni tashkil etish. Tarmoq va kompleks servis geografik tadqiqotlar. Xizmat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Xizmat ko'rsatishni bevosita muayyan odam, shaxs bilan bog'liqligi va uning ehtiyojlarini qondirishga karatilganligi. Xizmatlarning turlanishi. "Toza ko'rinishda"gi, ya'ni "noishlab chikarish"ga mansub xizmatlar. "Narsa" ko'rinishidagi, ya'ni ishlab chiqarishga mansub xizmatlar. Xizmatning asosiy mohiyati muayyan yakka shaxsning buyurtmasi asosida ishning bajarilishi bilan bog'liqligi. Xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida tutgan o'rni. Xizmat ko'rsatish sohasini bajaradigan vazifalariga ko'ra guruhlanishi. Xizmatlarni klasifikatsiyasi. Yehtiyojlar haqida tushuncha. Aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari. Ehtiyojlarning guruhlanishi. Biologik va ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar. Iqlim, aholi tarkibi, migratsiya, aholi daromadlari, aholi joylashuvi va transport, aholiga xizmat ko'rsatishning muayyan darajasi va b. Aholining xizmatlarga bulgan ehtiyojlarini aniklash usullari va normativlari (me'yorlari). Xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish xususiyatlari. Xizmatlarni iste'mol qiluvchilarni turlanishi. Xizmat ko'rsatish darajasini o'lchash usullari. Xizmat ko'rsatish soxalarini rivojlanishini baxolashning iktisodiy-geografik jihatlari. Aholiga xizmat ko'rsatish darajasini subyektiv, ya'ni ishtirokchi aholi tomonidan baholanishi (sotsilogik so'rovlar) hamda xizmat ko'rsatish darajasini tadqiqotchi tomonidan turli statistik va boshka manbalar taxlili asosida baholash. Xizmat ko'rsatish darajasi ko'rsatkichlari turlari. Xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishini o'rganish geografianing muhim masalasi ekanligi. Xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etishning asosiy tushunchalari. Xizmat ko'rsatish muassasalarini joylashtirish va hududiy tashkil etish tushunchasi. Muassasa, muassasalar turi, xizmat ko'rsatish markazlari, xizmat ko'rsatish zonasi, xizmat ko'rsatish areali, xizmat ko'rsatishning hududiy tizimlari va x. Xizmat ko'rsatishni tashkil etilishining pog'onali – iyerarxik shakli. Aholiga xizmat ko'rsatishni pog'onali tashkil etilishi va uning nazariy asoslari. Bu boradagi turli ilmiy ishlanmalar. Xizmat ko'rsatishni pog'onali hududiy tashkil etish buyicha g'arb olimlarining tajribasi. V.Kristaller va A.Lyoshlar tomonidan «markaziy joylar» nazariyasining yaratilishi. Markaziy joylar nazariyasining maqsad va mohiyati, ilmiy-nazariy ahamiyati. Aholiga xizmat ko'rsatish markazlari. Xizmat ko'rsatish markazlari – xizmat ko'rsatish soxalarini hududiy tashkil etishni tadqiq etishning muxim boskichi ekanligi. Xizmat ko'rsatish markazlarining mohiyati, tuzilishi va shakllanishi xususiyatlari. Ularning o'zaroaloqadorligi va bo'ysunuvchanligi.

Aholiga xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishi joyning tabiiy-geografik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshka omillari bilan bog'likligi. Xizmat ko'rsatish tizimini shaxar joylarda tashkil etishning uziga xos xususiyatlari. Xizmat ko'rsatish tizimini shaxar joylarda tashkil etish avvalo, shaxarning katta-kichikligi, turli kurilish inshootlarining konfiguratsiyasi, zichligi, balandligi, yirik korxonalarining joylashuviga bog'likligi. Xizmat ko'rsatish muassasalarini shahar hududida tanlab joylashuv xususiyati. Qishloq joylarda aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish aholi joylashuviga, uning demografik rivojlanishiga, qishloqlar soni, katta-kichikligi va zichligiga, yirik shaharlar (xizmat ko'rsatish markazlari)ga yaqin joylashuvi, qishloqlararo transport turini rivojlanganligiga bog'liq ekanligi. Qishloq joylarda aholiga xizmat ko'rsatishni tashkil etish muammolari.

## **MINTAQAVIY RIVOJLANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI**

### **fani bo'yicha:**

Dunyo mintaqalarining hozirgi zamon siyosiy xaritasi. Siyosiy xaritaning rivojlanish bosqichlari. Jahon mamlakatlarning turlari va guruhlarga bo'linishi. Jahon mamlakatlarning davlat tuzumlari. Rivojlangan mamlakatlar. Ularning jahon taraqqiyotidagi ahamiyati. Rivojlanayotgan mamlakatlar. Yangi industrial mintaqalar. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi. Mineral resurslar. Ularning xududlar bo'yicha taqsimlanishi. Yer resurslari. Yer fondi va uning tuzilishi. Suv resurslari. Jahon xo'jaligining rivojlanishida mineral resurslarning ahamiyati. Yoqilg'i resurslari. Noananaviy resurslar. Biologik resurslar. Dunyo okeani resurslari. Rekreasion va turistik resurslar, ularning turlari va mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi. Aholining soni va dinamikasi. Aholining jinsiy va yosh tarkibi.. Diniy tarkibi. Mehnat resurslari. Mehnat resurslaridan foydalanishning hududiy xususiyati. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining mohiyati va sabablari. «Aqlning oqib o'tishi» muammosi. Aholi joylashuvi va urbanizatsiya jarayoni. Aglomeratsiya, megapolis. Mintaqalar Xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi, qonuniyatlari. Mintaqalar Xalqaro mehnat taqsimotiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar. Mintaqalar Xalqaro mehnat taqsimotida transmilliy korporasiyalarning o'rni. Jahon mintaqalari ho'jaligi rivojlanishining hozirgi kundagi xususiyati. Jahon xo'jaligining globallashuvi jarayonida mamlakatlar va mamlakatlar guruhi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va ziddiyatlar. Asosiy tarmoqlari. Sanoatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Fan-texnika inqilobining sanoat rivojlanishi va joylashuvidagi ahamiyati. Mintaqalar FTIning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, intensiv va ekstensiv qishloq xo'jaligi. Dehqonchilik: donli ekinlar, texnika ekinlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik. Chorvachilik. Qoramolchilik rivojlangan mintaqalar va davlatlar. Qo'ychilik. Cho'chqachilik. Pillachilik. Quruqlik transporti, suv transporti, havo transporti Asosiy transport yo'llari. Yuk va yo'lovchi tashish hamda xalqaro mehnat taqsimotini rivojlantirishda transportning o'rni. Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi. Xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar, Xalqaro integratsion

birlashmalarning turlari. Xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalarning rivojlanish bosqichlari. Xorijiy investitsiya eksporterlari va importyorlari. Erkin iqtisodiy zonalar va ularning jahon xo'jaligini rivojlanishida tutgan o'rni. Mustaqil O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. Yevropa siyosiy xaritasi, uning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni. Subregionlari. Yirik davlatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Sharqiy Yevropaning o'tish iqtisodiyoti davlatlari. Tabiiy, mineral xomashyo, demografik, geosiyosiy, transport-kommunikatsiya va ishlab chiqarish salohiyati. Ukraina. Moldaviya. Belorussiya mamlakatlari. Rossiyaga iqtisodiy geografik tavsif. O'zbekistonga qo'shni MDH tarkibidagi mamlakatlar: Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston. Janubiy Kavkaz davlatlari (Zakavkazya). Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari. Osiyoning yangi industrial mamlakatlari. Janubiy Osiyo. Shimoliy Amerika davlatlari, Janubiy Amerika davlatlari, Afrika davlatlari, Shimoliy Afrika davlatlari. Tropik Afrika davlatlari. Janubiy Afrika davlatlari Avstraliya va Okeaniya mintaqalari makroiqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari.

## **TIBBIYOT GEOGRAFIYASI**

### **fani bo'yicha:**

Tibbiyot geografiyasi fani predmeti va vazifalari Tibbiyot geografiyasi fanining maqsadi, vazifalari. Fanning tadqiqot obyekti va predmeti. Fanning gidrometeorologiya tizimidagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi, mutaxassis tayyorlashda tutgan o'rni Tibbiyot geografiyasi fanining rivojlanish tarixi Tibbiyot geografiyasi fanining vujudga kelish shart-sharoitlari. Tibbiyot geografiyasining rivojlanishida rus olimlari O.X.Zabolotniy, Ye.N.Povlovskiy, A.A.Shoshin, A.V.Chaklin, A.G.Avsin, I.G.Shevelov va boshqalarning qo'shgan hissalarini. Xorijiy davlatlarda tibbiyot geografiyasining rivojlanishiga Girsh, Finke, Fuks, Boje, Gorne kabi olimlarning qo'shgan hissalarini. O'rta Osiyo va O'zbekistonda tibbiyot geografiyasining rivojlanishiga Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy, V.A.Akobyev, A.X.Yusupov, A.A.Sobirov, Sh.N.Muxiddinov, M.I.Nazarov, A.S.Soleyev, N.Q.Komilova va boshqalarning tutgan o'rni. Tibbiyot geografiyasining tadqiqot usullari Tibbiy geografik tadqiqotlarni tashkil etish. Tibbiy geografik tadqiqotlarni asosiy usullari. Tibbiy geografik tavsif uslubi, tibbiy geografik tadqiqotlarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rni o'rni Tibbiyot geografiyasida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar tushunchasi. Tabiiy omillarni tibbiy geografik baholashning tamoyil va usullari. Tabiiy geografik omillarning ayrim elementlari, iqlim, ichki suvlar, relief, hayvonot dunyosi, o'simlik qoplami, tuproqlarning o'rganilganlik darajasi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillarni baholashning tamoyil va usullari. Aholisi, sanoati va qishloq xo'jaligi, transport aloqalari. Tibbiy sanitariya sharoiti, aholini kasallikka chalinganligi. Sog'liqni saqlashni tashkil etish. Mahalliy tibbiy va veterinariya muassasalari. Alohida olingan hududlarni tibbiy geografik tavsifiga bag'ishlangan ishlarni vujudga kelishi. O'zbekiston

hududini tibbiy geografik o'rganish. Geografik rayonlarni tibbiy geografik o'rganish uslublari. Ma'lum bir hududlarni tibbiy geografik o'rganishni tashkil etish va tekshirish uslublari. Nozogeografiya va uning asosiy vazifalari, nozogeografik vaziyatning hududiy xususiyatlari, nozogeografiya va uning mohiyati. Nozogeografiyaning vazifalari. Nozogeografiyaning umumiy holati va asosiy tushunchalari. Nozokompleks va nozoreallarning vujudga kelishida tashqi omillarning ahamiyati. Tabiiy omillar. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Nozokompleks va nozoreallarni o'rganish usullari. Nozogeografik vaziyatning hududiy xususiyatlari. O'zbekiston respublikasi aholi kasallanishi geografiyasi. O'rta Zarafshon tabiiy sharoitini nozogeografik baholash. Vodiy aholisining salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar. O'rta Zarafshon vodiysini Tibbiyot geografiyasi tibbiy-geografik rayonlashtirish. Tibbiy geografik kartalashtirish, uning mohiyati, vazifalari va usullari. Tibbiy geografik tadqiqotlarda geografik haritalarning ahamiyati. Tibbiy geografik haritalar ularning ahamiyati va tasnifi. Obzor tibbiy geografik haritalar. Tahliliy tibbiy geografik haritalar. Nozogeografik haritalar. Ularning masshtabi. Hududning geografik qamrovi. Tibbiy geografik xatitalarni tuzish va bezash usullari. Tibbiy geografik haritalarni tuzishda bajariladigan ishlar. Belgi usuli. Areallar usuli. Rang berish usuli. Nuqta usuli. Kartogramma va kartodiagramma usullari. Tibbiy geografik kartalarni tuzish usullari

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, Toshkent, 2021
2. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”.- Toshkent: - “ O‘zbekiston”, 2017 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
4. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география. Понятийно-терминологический словарь. - М., 1980.
5. Асанов Г.Р. Социал-иктисодий география: термин ва тушунчалар изоҳли луғати. –Т., 1990.
6. Анна Баттимер Путь в географии. –М.: Прогресс, 1990
7. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013. – 307 с.
8. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Фан ва технология», 2014.-368 б.
9. Абдалова З.Т., Тожиева З.Н. Иқтисодий география. Ўқув қўлланма. – Т.: «иктисод-молия», - 2013. 212 бет.
10. Абдурахмонов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. Демография. Ўқув қолланма. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
11. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
12. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Т., 2002.
13. Баранский Н.Н. Научные принципы географии. Избр. труды. – М., 1980.
14. Болтаев М. Марказий Осиё давлатлари иқтисодий ва ижтимоий географияси. (Ўқув қўлланма). –Т., 2003.
15. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси демография асослари билан. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
16. Джонсон Р.Дж. География и географы. –Л., 1989.
17. Жекулин В.С. Введение в географию. -Л.: ЛГУ, 1989.
18. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. – М.: 1999. – 124 с.
19. Назаров М., Тожиева З. Ижтимоий география. -Т., «Университет», 2003.
20. Воронов А.Г. Медицинская география. М. Наука. 1989.
21. Комилова Н.Қ. Солиев А.С. Тиббиёт географияси. Т. Истиклол. 2005.
22. Комилова Н.Қ. Равшанов А. Тиббиёт географияси ва глобал саломатлик. -Тошкент, 2019
23. Шошин А.А. Основы медицинской географии. М-Л. Изд. Академии наук. 1962. Чаклин А.В. Медицинская география. М. Знание. 1977.



24. Родионова, И. А. Экономическая и социальная география мира. В 2 т. Т. 1,2 : учебник для бакалавров. 2-е изд., испр. и доп. - М., 2015.-431 с.
25. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методлар ва амалиёт. – Т.: Камалак, 2013.
26. Солиев А.С., Махамдалиев Р. Иқтисодий ва ижтимоий география асослари. – Т., 2005.
27. Саушкин Ю.Г., Введение в экономическую географию. - М., 1970.
28. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси // Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси.- Т.: Университет. 2014.
29. Солиев А.С., Усманов М.Р. Туризм географияси.-Самарканд, 2005
30. Социально-экономическая география: понятие и термины. – Смоленск: Ойкумена, 2013.
31. Скопин А.Ю. Введение в экономическую географию. – М.: Владос, 2001.
32. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: «Фан ва технология», 2010. – 276 б.
33. Тожиева З.Н. Статистиканинг умумий назарияси. – Т., 2000.-58 б.
34. Тожиева З.Н. Иқтисодий ва демографик статистика. – Т., 2002.-160 б.
35. Экономическая, социальная и политическая география: мир, регионы, страны. Под. Ред. И.А.Родионовой. М.:Экон.-Информ., 2008.
36. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.Ратанова. –М., 2004.
37. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья –М., 2004. (Ратанова М тахрири остида).
38. Қаюмов А., Пардаев Ғ, Исломов И. Иқтисодий ва ижтимоий география. (Ўрта Осиё иқтисодий ва ижтимоий географияси. Ўқув қўлланма). -Т., 2007.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA  
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS  
FANLARDAN DA'VOGARLARNING BILIMLARINI  
BAHOLASH MEZONI**

<b>Sinov topshirish shakli</b>	Yozma
<b>Ajratilgan vaqt</b>	120 daqiqa
<b>Savollar soni</b>	5
<b>Har bir savol uchun belgilangan ball</b>	20
<b>Maksimal ball</b>	100